

**TURIZM TARMOQLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
(XORAZM VILOYATI MISOLIDA)
ТУРИСТИЧЕСКИЕ СЕТИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ
(НА ПРИМЕРЕ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ)
TOURISM NETWORKS AND DEVELOPMENT PROSPECTS
(USING THE EXAMPLE OF THE KHOREZM REGION)**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada turizm tarmoqlari va ularning jahon miqyosda rivojlanishi hamda o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Turizm tarmoqlarining hududiy jihatlari bir qancha mamlakatlar va O'zbekiston Respublikasi hamda Xorazm viloyati misolida qisqacha tadqiq qilingan.*

***Kalit so'zlar:** turizm, agro turizm, madaniy turizm, xizmat ko'rsatish, turizm resurslari, turizm marshrutlari, turizm infratuzilmasi*

***Аннотация.** В статье анализируется индустрия туризма, ее глобальное развитие и отдельные аспекты. Кратко рассмотрены территориальные аспекты туристической отрасли в ряде стран на примере Республики Узбекистан и Хорезмской области.*

***Ключевые слова:** туризм, агротуризм, культурный туризм, предоставление услуг, туристические ресурсы, туристические маршруты, туристическая инфраструктура.*

***Abstract.** This article analyzes tourism networks and their global development and specific aspects. The territorial aspects of tourism industries are briefly studied in several countries and the Republic of Uzbekistan and the Khorezm region.*

***Keywords:** tourism, agrotourism, cultural tourism, service provision, tourism resources, tourism routes, tourism infrastructure*

Kirish. Bugungi kunda jahon miqyosida turizm yuqori daromad keltiruvchi iqtisodiyotning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Aksariyat iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotda turizm sohasining ulushi juda yuqori ekanligi bilan ajralib turadi. Jumladan Fransiya (79,8 %), Gretsiya (78,9%), Buyuk Britaniya (78,3%), Belgiya (77,7%), Italiya (73,8%), kabi mamlakatlarda xizmat ko'rsatish xususan turizm sohasining ulushi 70 foizdan ortiq ko'rsatkichni tashkil etadi. Globallashuv jarayonida mamlakatlarning iqtisodiy ijtimoiy rivojlanganligining asosiy indikatorlaridan biri xizmat ko'rsatish sektorining holati bilan baholanadi.

Rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyotidagi O'zbekiston Boliviya, Turkmaniston, Serbiya kabi mamlakatlarda xizmat ko'rsatish sohalarining ulushi

50 foizdan oshmaydi. Bunday ko'rsatkich ushbu mamlakatlarda xizmat ko'rsatish va turizm sohasining bosqichma bosqich rivojlanayotganligini anglatadi.

Asosiy qism. Turizmning afzalligi uning xomashyo, murakkab infratuzilma talab qilmasdan yuqori daromad keltirishidir. **Turizm** – fransuzcha *tour*- sayr, sayohat, sayyohlik- sayohat qilish, faol dam olish turlaridan biri. Turizm deganda jismoniy shaxsnig doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy, amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan 1 yil gacha jo'nab ketish tushuniladi [1].

Quyida turizmning asosiy turlari quyidagilardan iborat.

Madaniy turizm - bu sayohatchilar mamlakat yoki din madaniyati, ayniqsa turmush tarzi va odamlar hayotini shakllantirgan boshqa elementlar bilan shug'ullanadigan joy. Sayyohlar marosimlar va festivallar kabi tegishli tadbirlarga sho'ng'ishadi. Dunyodagi mashhur madaniy turizm yo'nalishlaridan ba'zilari Madagaskardir; Lombok, Indoneziya; Latviya; Haida Gvayi, Britaniya Kolumbiyasi; Shimoliy Shri-Lanka; Chiang May, Tailand; Aristi, Gretsiya; G'arbiy Keyp, Janubiy Afrika va Tamilnadu, Hindiston. Xashimov Sh.J tomonidan Madaniy turizmni rivojlantirishda O'zbekistonda madaniy turizmining rivojlanishi va uning mamlakat xalqaro imidji yuksalishiga ko'rsatgan ta'siri masalalari tahlil qilingan. Tarixiy-madaniy turizmning madaniy turizm tarkibida tutgan o'rni va ahamiyati masalalari ko'rib o'tilgan. O'zbekistonda ham yuqorida ko'rsatilgaturizm sohalarining deyarli berchasi tashkil etilgan bo'lib, keying yillarda tashrif buyurayotgan turistlar soni ortib bormoqda. Ayniqsa katta turistik salohiyatga ega bo'lgan Xiva shaxriga shaxsan Prezidant SH.Mirziyoyev tomonidan katta e'tibor qaratilib, ko'plab davlat rahabrlari va martabali mehmonlar Xiva shaxriga mehmon qilinmoqda. Jumladan, Turkiya prezidenti Rajab Toyib Erdugan, Qirg'iz respublikasi prezidenti Sadir Jeparov, Rossiya federatsiyasi prezidenti Vladimir Putin Xiva shaxriga tashrif buyurib "Ochiq osmon ostidagi muzey" shahar bilan tanishganlar. Alohida ta'kidlash joizki, Xiva shaxrida turizmni rivojlantirish maqsadida juda katta investitsiyalar jalb qilinmoqda.

Bundan tashqari 2020-yilda Turkiy dunyoning madaniy poytaxti, 2024-yilda esa Islom dunyosining turizm poytaxti bo'ldi.

Tibbiy turizm deganda davolanish uchun boshqa davlatga sayohat qiladigan odamlar tushuniladi. Rivojlangan mamlakatlardan odamlar arzon narxlarda davolanish uchun rivojlanayotgan mamlakatlarga boradilar. Dunyodagi mashhur tibbiy turizm yo'nalishlari Hindiston, Malayziya, Braziliya, Tailand, Meksika, Kosta-Rika, Tayvan, Janubiy Koreya va Singapurdir. O.Umarovning tadqiqotlarida tibbiy turizmning rivojlanish tarixi, Amerika, Yevropa hamda uning Osiyodagi ko'lami, tibbiy turistlarning asosiy muammolari va uning yechimi, O'zbekistonda tibbiy turizm, shuningdek, yangi "exchange program in medical tourism" ni tibbiyot oliygohlari bilan hamkorlikda tadbiq etish bilan bog'liq taklif, mulohazalar keltirilgan

Diniy turizm, shuningdek, **e'tiqod turizmi** muqaddas joylarga alohida yoki guruh bo'lib sayohat qilishni anglatadi. Bu joylarga madaniy, tarixiy va diniy ahamiyatini bilmoqchi bo'lgan diniy e'tiqodsiz sayyohlar ham tashrif buyurishadi. Dunyodagi mashhur diniy turizm yo'nalishlari: Shvedagon pagodasi, San-Vitale bazilikasi, Makka, Xarmandir Sohib, Osmon ibodatxonasi, Bahai bog'lari, Vatikan, Vat Rong Khun, Avliyo Bazil sobori, Paro Taktsang, Ispaniya sinagogasi va Quddus. Kurbanova M tomonidan diniy turizm, ziyorat va turizmning kelib chiqish tarixi ilmiy asoslanib, tushunchalarining mohiyati nazariy jihatdan yoritib berilgan, xorijiy olimlar tomonidan berilgan ta'riflar tahlil qilingan.

Agroturizm odatda fermer xo'jaliklarida sodir bo'ladi. Bu sayohatchilarga qishloq hayotini boshdan kechirish, mahalliy taomlarni tatib ko'rish va turli dehqonchilik vazifalari bilan tanishish imkoniyatini beradi. Ushbu turdagi turizm Italiyada fermer xo'jaligi turizmi deb ham ataladi. Agroturizmning ba'zi turlari to'g'ridan-to'g'ri bozor agroturizmi, tajriba va ta'lim agroturizmi va dam olish agroturizmidir. M.Roman , E.Tog'aymurodov tomonidan Samarqand viloyati fermer xo'jaliklari misolida agroturizmni rivojlantirish imkoniyatlari statistik tahlil, logistik regressiya metodlaridan foydalangan holda tadqiq qilingan.

Viloyatda agraturizmning rivojlantirish bo'yicha fermer ho'jaliklarining geografik o'rni logistika imkoniyatlaridan samarali foydalanishga qaratilgan taklif tavsiyalar ishlab chiqilgan [2].

Ekoturizm buzilmagan tabiiy hududlarga tashrif buyurishni o'z ichiga oladi. Bu atrof-muhitni asrash va mahalliy aholi farovonligini oshirishga yordam beradi. Dunyodagi eng yaxshi ekoturizm yo'nalishlari qatoriga Alyaska, Amazonka, Antarktida, Avstraliyaning Moviy tog'lari, Borneo, Botsvana, Kosta-Rika, Dominika, Galapagos orollari va Himoloy tog'lari kiradi. Azamova S.A tomonidan O'zbekiston ekologik muhitining ekologik globallashuv jarayoni asosida o'zgarayotgani, ekologik munosabatlarning tarixiy tajribalar natijasida meyoriy rivojlanganligi, milliy ekologik qarashlar, tasavvur va bilimlar jahon ekologik madaniyati rivojiga ta'sir etganligi va ularga adekvatligi falsafiy asoslab berilgan.

Sarguzasht turizmi - sayohatchilar kutilmagan hodisalarni kutishlari mumkin bo'lgan uzoq joylarni o'rganishni o'z ichiga oladi. Bu yangi madaniyat yoki yangi landshaft bilan bog'lanishni va ayni paytda jismoniy faollikni o'z ichiga oladi. Sarguzasht turizmining ba'zi turlari kunduzgi yurish, ryukzak, zip astar, erkin tushish, rafting, tog 'velosipedi, chang'i va snoubordni o'z ichiga oladi. Daminov M. tomonidan sarguzasht turizmini rivojlantirish yo'llari ,sarguzasht turizmi rivojlangan hududlar, sarguzasht turizmida qatnashuvchi turistlarning tafavutlari,sarguzasht turizmining yo'nalishlari, sarguzasht turizmidagi muommolar, sarguzasht turizmining salmog'i, bu turizm orqali mamlakatlarga tushadigan daromadlar, marketingning turizm sohasidagi o'rni, sarguzasht turizmida qatnashuvchilarning ulushlari va ularga yechimlar to'g'risida bayon qilingan.

Rasmiy statistik ma'lumotlar turizm sohasining yaqin yillar ichida sayyohlar oshib borishi bilan O'zbekiston iqtisodiyotida yetakchi o'rinlarni egallab kelayotganligini isbotlamoqda. 2023-yil hisobi bo'yicha taxminan 7 millionta sayyohlar yurtimizga turli maqsadlarda tashrif buyurishdi. Bu

ko'rsatkichni 2024-yil uchun prognoz natijalariga ko'ra, sayyohlar sonini 10 milliontaga oshirish belgilandi [6].

Xorazm viloyati O'zbekistonning eng boy tarixiy-madaniy merosiga ega hududlaridan biri bo'lib, turizm sohasida katta salohiyatga ega. Viloyatda 255 ta madaniy meros obyekti davlat ro'yxatiga olingan, shulardan 53 tasi Xiva shahridagi "Ichan-Qal'a" Davlat muzey qo'riqxonasida joylashgan [3].

Viloyatda turizmni rivojlantirishda bir qancha islohotlar va maxsus davlat dasturlari amaliyotga joriy qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.05.2017 yildagi PQ-2953-son "2017 — 2021-yillarda Xorazm viloyati va Xiva shahrining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish Dasturi to'g'risida"gi Prezident qarori Xiva shaxri turizm resruslaridan yanda samarali foydalanish ishlarini jadallashtirmoqda.

Hozirgi kunda Viloyatda mehmonxonalar soni ortib, turoperator va turagentliklar soni 50 tadan oshdi. Mehmonxonalardagi o'rinlar soni esa yuqori suratlarda oshilimoqda. Bu o'zgarishlar natijasida turizm sohasida faoliyat yuritadigan malakali xodimlarga ehtiyojni oshirmoqda.

Xorazm viloyatining turizm salohiyatini targ'ib qilish maqsadida xalqaro yarmarkalarda ishtirok etilmoqda. Masalan, Qatarining Doha shahrida bo'lib o'tgan "Qatar Travel Mart" xalqaro turizm yarmarkasida viloyatning turizm salohiyati namoyish etildi. Shuningdek, viloyatda turizm sohasida mutaxassislar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va dasturlar asosida ishlar olib borilmoqda.

Xulosa. Xorazm viloyatining boy tarixiy-madaniy merosi, rivojlanayotgan infratuzilmasi va sayyohlik xizmatlarining takomillashuvi viloyatning turizm salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Albatta, sohani rivojlantirish uchun xalqaro bozorni monitoring qilish, ichki potensialni baholash, mavjud resurslardan samarali foydalanish, infratuzilmani shakllantirish hamda marketing faoliyatini kengaytirish kabi ishlarni bosqichma bosqich amalga oshirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Madrimova, O.L.Saydullayeva “Turizm sohasining tarixi va uning rivojlanish davrlari. yurtimizning tarixiy manzilgohlari. // Researchfocus, Volume2, 2023
2. E.Togaymuradov, M.Roman, P.Prus “Opportunities and Directions of Development of Agritourism: Evidence from Samarkand Region” Sustainability 2023, 15(2), 981; <https://doi.org/10.3390/su1502098>
3. Бекжанов, Д. Ю. Хоразм viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning istiqbollari ustuvor yo‘nalishlari / Д. Ю. Бекжанов. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2017. — № 24.1 (158.1). — С. 9-12. — URL: <https://moluch.ru/archive/158/44578/>
4. <https://cedr.uz/2024/10/04/o%CA%BBzbekistonda-turizmni-rivojlantirish-istiqbollari/>
5. <https://lex.uz/en/docs/-4876081>
6. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/02/21/tourists/>